

QO‘QON SHAHRINING QADIMGI DAVRLARDAGI TARAQQIYOTI: ARXEOLOGIK VA TARIXIY MANBALAR ASOSIDA.

Bozorov Otabek Odilovich

Qo‘qon Davlat Universiteti

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Nabiyev Sherzod Farhodjon o‘g‘li

Qo‘qon davlat pedagogika instituti

*Ijtimoiy va gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi
(Tarix) mutaxassisligi, 1-bosqich magistranti*

sherzodbeknabiyev06@gmail.com

+9989508828108

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qo‘qon shahrining qadimgi davrlardagi taraqqiyoti arxeologik topilmalar va yozma tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Qadimgi davrlarda Farg‘ona vodiysining muhim markazlaridan biri bo‘lgan Qo‘qon hududining shakllanishi, ilk aholi manzillari, iqtisodiy va madaniy rivojlanish jarayonlari arxeologik dalillar orqali yoritiladi. Shuningdek, qadimiy manbalarda uchraydigan toponimlar, sug‘orish tizimlari, hunarmandchilik va savdo munosabatlari kabi tarixiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar ham ilmiy asosda tahlil qilinadi. Maqola, Qo‘qonning ilk tarixiy bosqichlarini o‘rganishga qiziquvchi tadqiqotchilar uchun muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar Qo‘qon, qadimgi davr, arxeologiya, tarixiy manbalar, Farg‘ona vodiysi, qadimiy shahar, sug‘orish tizimi, toponimika, savdo, hunarmandchilik.

Аннотация. В данной статье рассматривается развитие города Коканд в древние периоды на основе археологических находок и письменных исторических источников. Освещаются процессы формирования территории Коканда, одного из важных центров Ферганской долины в древности, а также особенности расселения населения, экономического и культурного развития, подтвержденные археологическими данными. Особое внимание уделено анализу топонимов, ирригационных систем, ремесленного производства и торговых связей, упоминаемых в древних источниках. Статья представляет научную ценность для исследователей, интересующихся ранними этапами истории Коканда.

Ключевые слова. Коканд, древний период, археология, исторические источники, Ферганская долина, древний город, ирригационная система, топонимика, торговля, ремесло.

Annotation. This article examines the development of the city of Kokand in ancient times based on archaeological findings and written historical sources. It explores the formation of Kokand as one of the key centers of the Fergana Valley in antiquity, highlighting early settlement patterns, as well as the region’s economic and

cultural growth as evidenced by archaeological data. Special attention is given to the analysis of toponyms, irrigation systems, craftsmanship, and trade relations mentioned in ancient records. The article serves as a valuable academic resource for researchers interested in the early historical stages of Kokand.

Keywords. Kokand, ancient period, archaeology, historical sources, Fergana Valley, ancient city, irrigation system, toponymy, trade, craftsmanship

KIRISH. Qo‘qon shahrining qadimgi tarixi Farg‘ona vodiysining umumiy sivilizatsiya taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u mintaqaning qadimdan yuksak madaniyatlar va davlat tuzilmalarining shakllanishida muhim markaz bo‘lganini ko‘rsatadi. Qo‘qon o‘zining tabiiy-geografik joylashuvi, unumdor zaminlari va strategik savdo yo‘llariga yaqinligi tufayli qadimdan diqqatga sazovor bo‘lgan. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi — Qo‘qonning qadimgi davrlardagi tarixiy rivojlanish jarayonlarini arxeologik va yozma manbalar asosida o‘rganish, shahar sifatida shakllanishiga olib kelgan omillarni tahlil qilishdir. Maqola davomida asosan quyidagi savollarga javob izlanadi:

- Qo‘qon atrofidagi qadimgi aholi qanday etnik tarkibga ega bo‘lgan?
- Qadimgi Qo‘qon hududida qaysi tarixiy-madaniy qatlamlar mavjud?
- Yozma manbalarda bu hudud qanday tilga olingan?
- Qadimgi Qo‘qonning savdo-iqtisodiy hayoti qanday bo‘lgan?

Ushbu tadqiqot quyidagi ilmiy usullarga tayanadi: tarixiy-taqqoslov (komparativ) tahlil, arxeologik topilmalarni sistematik umumlashtirish, yozma manbalardagi axborotlarni izchil tahlil qilish. Farg‘ona vodiysining qadimiy tarixini tadqiq etish nafaqat mintaqaning o‘ziga xos sivilizatsion yo‘lini ochib beradi, balki butun Markaziy Osiyo tarixini to‘liqroq tasavvur qilish imkonini ham yaratadi. Ayniqsa, Qo‘qon shahrining shakllanishiga olib kelgan ijtimoiy-siyosiy va madaniy omillarni aniqlash bugungi tarixshunoslik uchun ham dolzarbdir. Qo‘qon atamasi bugungi kungacha o‘z atrofida turli ilmiy bahs-munozaralarni keltirib chiqarib kelmoqda. Bu nomning etimologiyasi borasida bir nechta versiyalar mavjud bo‘lib, ularning har biri muayyan tarixiy va lingvistik asosga ega. Ko‘pchilik tadqiqotchilar "Qo‘qon" so‘zini turkiy ildizga bog‘laydi. Jumladan, ayrim manbalarda u "qo‘q" — "osmon", "ko‘k" va "qand" — "shahar" so‘zlarining birikmasidan tashkil topgan degan fikr ilgari suriladi. Bu yerda "qand" so‘zining Baqtriya, So‘g‘diyona, Sug‘d tillaridagi "kent", "shaharcha" ma‘nosida ishlatilganligi asos qilib olinadi. Shunday qilib, "Qo‘qon" — "osmon shahar" yoki "ko‘k shahar" degan ma‘noni bildiradi.[1]

Boshqa manbalar esa bu nomni "ko‘k olam", "ilohiy shahar" degan ma‘noga tenglashtiradi. Bu yondashuvlar, asosan, turkiy xalqlarning qadimiy osmonga sig‘inish (tengrizm) an‘analariga tayanadi.[2]

Qo‘qon nomining yana bir tushuntirishi forsiy-arabiy manbalar bilan bog‘liq. Bu yondashuvga ko‘ra, "Qo‘qon" so‘zi "qoh-qand" yoki "quh-qand" shaklida yozilib, "tog‘li shahar" yoki "qudratli shahar" degan ma‘noni bildiradi. Bu fikr Arab geografik adabiyotida va forsiy tazkiralarda ko‘p uchraydi.[3]

Ayniqsa, Al-Istaxriy va Ibn Havqal singari olimlarning asarlarida Farg‘ona vodiysidagi shaharlar, jumladan, Qo‘qon haqida ishoralar mavjud. Qadimiy Xitoy sayyohlari va elchilari tomonidan qoldirilgan yozma manbalarda Farg‘ona vodiysi "Da-Yuan" deb nomlanib, uning ichida turli shaharlar tilga olingan. Ba‘zilar bu tavsiflar ichida bugungi Qo‘qonning qadimgi prototipi mavjud bo‘lgan deb hisoblaydilar. Aytishlaricha, Xitoy manbalaridagi "Kuyan" yoki "Gukan" kabi fonetik variantlar keyinchalik "Qo‘qon"ga aylangan bo‘lishi mumkin.[4]

Qo‘qon atamasining shakllanishida turli etnik guruhlar — saklar, massagetlar, so‘g‘diylar va keyinchalik turkiy qabilalarning aralashuvi muhim rol o‘ynagan. Har bir qavm bu hududga kelib, o‘z tili va urf-odatlarini olib kelgan, bu esa joy nomining shakllanishiga bevosita ta‘sir qilgan. Xalq orasida saqlanib qolgan ba‘zi rivoyatlarda "Qo‘qon" so‘zining kelib chiqishi shayx Qo‘qon ismli zodagon yoki avliyo bilan bog‘lanadi. Go‘yoki, bu shaxs shahar poydevorini qurdirgan yoki uning atrofida ilk jamiyat tashkil topgan. Albatta, bu kabi afsonaviy manbalar tarixiy dalil bo‘lolmaydi, biroq ularni o‘rganish xalq xotirasidagi tarixiy tasavvurlarni tushunishga xizmat qiladi.[5]

Qo‘qon shahri joylashgan Farg‘ona vodiysi qadimdan yirik siyosiy va iqtisodiy markaz sifatida tanilgan. Tarixiy manbalar bu hudud turli davlatlar — Baqtriya, So‘g‘d, Kushon, Eftalitlar, Turk xoqonligi, Arab xalifaligi va Somoniylar tasarrufida bo‘lganini tasdiqlaydi. Har bir davlat bu hududga o‘z siyosiy, iqtisodiy va madaniy ta‘sirini ko‘rsatgan. Miloddan avvalgi I ming yillikda Farg‘ona vodiysi, xususan, Qo‘qon atrofidagi yerlar qadimgi Baqtriya va So‘g‘d sivilizatsiyalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Ayniqsa, So‘g‘diyona savdogarlari Farg‘ona vodiysi orqali Xitoy bilan savdo aloqalarini yo‘lga qo‘ygan.[6]

Milodiy I–III asrlarda Farg‘ona vodiysi Kushon imperiyasining sharqiy viloyatlaridan biri sifatida faol ishtirok etgan. Kushonlar buddizmni rasmiy din darajasiga ko‘targan va bu dinning asarlari, haykallari, ibodatxonalari vodiyni turli joylarida, jumladan Qo‘qon atrofida ham aniqlangan. Kushonlar davrida savdo aloqalari "Buyuk ipak yo‘li" orqali yanada jonlandi. Farg‘ona atrofidan Xitoyga otlar, shuningdek, paxta, metallar va hunarmandchilik buyumlari eksport qilingan. Bu Qo‘qonning geosiyosiy ahamiyatini oshirgan.[7]

Farg‘ona vodiysi, jumladan, Qo‘qon atrofidagi hududlar insoniyat sivilizatsiyasi tarixining juda qadimiy bosqichlaridan boshlab yashash uchun qulay joy bo‘lgan. Mintaqaning unumdor vodiysi, daryo va tog‘lar bilan o‘ralgan geografik holati bu yerda ilk dehqonchilik va chorvachilik madaniyatining erta shakllanishiga imkon

yaratgan. Neolit va eneolit davrlariga oid arxeologik topilmalar bu hududda ilk odamlar mustahkam ijtimoiy hayot kechirganini ko'rsatadi. Xususan, Chust madaniyati yodgorliklari — miloddan avvalgi II ming yillikka oid sopol idishlar, kulolchilik buyumlari, geometrik naqshlar bilan bezatilgan keramika namunalari orqali bu madaniyat Farg'ona vodiysining janubiy va markaziy qismlarida keng tarqalganini tasdiqlaydi. Qo'qon atrofi ham bu madaniy zonaga kiradi.[8]

Bronza davrida (miloddan avvalgi II–I ming yilliklar) bu hududda dehqonchilik, chorvachilik va metallurgiya rivoj topgan. Qo'qon atrofida yashagan aholiga oid sopol idishlar, bronzadan yasalgan mehnat qurollari, hayvon skeletlari, zardushtiy ibodatxonalar arxeologik qazishmalar orqali aniqlangan. Metallga ishlov berish madaniyati ularning boshqa madaniyatlar bilan savdo aloqalarini yo'lga qo'yganidan dalolat beradi. Qadimgi yozma manbalar va arxeologik ma'lumotlar asosida olimlar bu hududda dastlab saklar, keyinchalik so'g'diylar va massagetlar yashagan deb hisoblashadi. Miloddan avvalgi I ming yillikning ikkinchi yarmida esa bu yerga turkiy qabilalar kirib kela boshlagan. Ayniqsa, miloddan avvalgi IV–III asrlarga kelib, ko'chmanchi chorvador va yarim-ko'chmanchi dehqon jamoalari mavjud bo'lgan. Hayvon suyaklarining ko'pligi, yovvoyi hayvon qoldiqlari kamligi bilan bu holat ilmiy asoslangan. Qo'qon atrofida joylashgan Chust, Dalvarzintepa, Mingtepa, Shaxruxiya kabi yirik arxeologik yodgorliklar bu hududda qadimdan qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va diniy e'tiqodlar shakllanganini ko'rsatadi. Masalan, Dalvarzintepadagi budda ibodatxonalari bu yerda diniy xilma-xillik mavjud bo'lganidan dalolat beradi. Bunday yodgorliklar Qo'qon tarixining qadimiy ildizlarini aniqlashtirish uchun muhim ilmiy manba hisoblanadi.[9]

Qo'qon shahri joylashgan Farg'ona vodiysi qadimdan boshlab yirik siyosiy va iqtisodiy markaz sifatida ajralib turgan. Bu hududning tabiiy-geografik qulayliklari – unumdor yerlar, tog' tizmalari va savdo yo'llari bilan kesishgan joylashuvi uni qadimgi davlatlar uchun muhim strategik nuqtaga aylantirgan. Tarixiy manbalar Farg'ona vodiysi, jumladan Qo'qon atrofidagi yerlar qadimda Baqtriya, So'g'diyona, Kushonlar, Eftalitlar, Turk xoqonligi, Arab xalifaligi va Somoniylar kabi yirik davlatlar tarkibida bo'lganini tasdiqlaydi. Mashhur sharqshunos olim V.V. Barthold o'zining “Turkiston islom davrida” asarida Farg'ona vodiysining qadimgi tarixiga chuqur yondashgan. Unga ko'ra, miloddan avvalgi I ming yillikda bu hudud So'g'diyona va Baqtriya sivilizatsiyalari bilan chambarchas aloqada bo'lgan. Ayniqsa, So'g'diyona savdogarlari va diplomatlari Farg'ona orqali Sharq (Xitoy) va G'arb (Baqtriya va Hindiston) o'rtasida faol vositachilik qilgan. Barthold Farg'onani qadimgi zamonlarda “erkin va o'ziga xos madaniyatga ega bo'lgan mintaqqa” deb ataydi, u yerdagi aholi zardushtiylik, buddizm va boshqa mahalliy e'tiqodlarga amal qilganini ham qayd etadi.[9]

Milodiy I–III asrlarda esa Farg‘ona Kushon imperiyasi ta’siri ostiga o‘tadi. Kushonlar buddizmni rasmiy diniy mafkura darajasiga ko‘taradi, natijada Qo‘qon atrofida ham buddaviy ibodatxonalar, haykallar va diniy san‘at yodgorliklari paydo bo‘ladi. Ayniqsa, Buyuk Ipak yo‘li orqali Xitoydan kelgan savdogarlar uchun Farg‘ona muhim tranzit nuqtaga aylangan. Barthold ushbu mintaqani qadimgi Markaziy Osiyodagi siyosiy va madaniy almashinuv markazi sifatida ko‘rsatadi. Uning fikricha, bu yerda qadimdan shaharsozlik rivojlangan, hunarmandchilik va savdo jonlangan, diniy bag‘rikenglik hukmron bo‘lgan. Shunday qilib, Qo‘qon hududi qadimda yirik sivilizatsiyalar chorrahasida joylashgan bo‘lib, har bir bosib oluvchi davlat bu yerga nafaqat harbiy, balki madaniy va iqtisodiy ta’sirini ham olib kelgan. Bu tarixiy qatlamlar bugungi kunda ham Qo‘qon tarixining chuqur ildizlari borligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Qo‘qon shahri qadimdan Farg‘ona vodiysining siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida alohida o‘rin egallagan. Arxeologik topilmalar va tarixiy yozma manbalar asosida shuni aniqlash mumkinki, bu hudud neolit davridan boshlab yuksak madaniy rivoj bosqichlarini bosib o‘tgan. Ayniqsa, Chust madaniyati, bronza davriga oid metallurgik rivojlanish, ilk dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlari bu yerda barvaqt sivilizatsion tizim shakllanganini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, Qo‘qon hududi qadimda Baqtriya, So‘g‘d, Kushonlar, Eftalitlar, Arab xalifaligi, Somoniylar kabi yirik davlatlarning tarkibida bo‘lib, har bir davrda o‘ziga xos siyosiy, iqtisodiy va madaniy ta’sirlarga duch kelgan. Ayniqsa, V.V. Bartholdning ta’kidlashicha, bu hudud o‘z davrida xalqlar va madaniyatlar chorrahasiga aylangan, bu esa uning tarixiy ahamiyatini yanada oshirgan. Toponomik tahlillar, yozma manbalar va afsonalar asosida “Qo‘qon” atamasining kelib chiqishi ham turli tarixiy va etnomadaniy qatlamlar bilan bog‘liq ekani aniqlanmoqda. Bularning barchasi Qo‘qon shahrining qadimgi davrlardagi shakllanishini nafaqat arxeologik, balki siyosiy va madaniy nuqtayi nazardan ham tahlil etish zarurligini ko‘rsatadi. Bugungi kunda Qo‘qonning bu qadimiy merosi uning zamonaviy ijtimoiy-madaniy hayotida ham o‘z aksini topmoqda. Shaharni kompleks tarixiy o‘rganish orqali Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi tarixini to‘liqroq tasavvur qilish imkoni paydo bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asqarov, A. (1992). *O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi*. Toshkent: Fan, 48–49-betlar..
2. Shoniyozov, K. (2001). *O‘zbeklar: qadimgi ajdodlarimiz madaniyati*.
3. Al-Istaxriy. *Kitab al-Masalik va-l-Mamalik*, tarjimasi orqali: Gulyamov, Ya.G. (1959), 112-bet.
4. Sima Qian. *Shiji* (Tarixiy xotiralar), Qadimgi Xitoy manbalaridan iqtibos.

5. Xo‘jayev, S. (2016). “Qo‘qon – qadimiy madaniyat beshigi”, *O‘zbekiston tarixi jurnali*, №2, 46-bet.
6. Al-Balazuriy. *Futuh al-Buldan*. Tarjimasi: G‘ulomov, Ya.G. (1961). Toshkent: Fan, 109–111-betlar.
7. Gulyamov, Ya.G. (1959). Кушанская эпоха в Фергане. Toshkent: AN UzSSR, 39–45-betlar.
8. Asqarov, A. (1981). Qadimgi Farg‘ona madaniyati. Toshkent: Fan, 32–35-betlar.
9. Shoniyozov, K. (2001). O‘zbeklar: qadimgi ajdodlarimiz madaniyati. Toshkent: Sharq, 41–44-betlar
10. Bartold, V.V. (1963). Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Moskva: Nauka, 21–30-betlar.